

## **O'ZBEK TILI DARSLIKLARIDA ARGO VA JARGONLARDAN TO'G'RI QO'LLASH. DARSLIKLARDAN NAMUNALAR**

**Mirjamolova Yodgora Mirali qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti*

*Uchunchi kurs bakalavr talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkuz maqola umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarida argo va jargonlarda to'g'ri qo'llash, darslikdagi chet eldan o'zlashma so'zlarni adabiy til qoidalariga rioya qilgan holda qo'llash va vulgarizmlar to'g'rida ma'lumot aytib o'tib ketilgan. Hozirda nafaqat darsliklarda balki muloqot jaroyonida ham argo, jargon hamda vulgarizm so'zlaridan noo'rin qo'llanilayotganligi to'g'risidagi muammolar yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Argo, jargon, vulgarizm, argo va jargonlarning lingvistik funksiyalari, o'zbek tili darsliklari, tarjima, konteks.

Til insonlar o'rtasida muloqotning asosiy vositasi bo'lib, uning murakkab tuzilmasi va xilma-xillagini tushunish, darsliklarni yana chuqurroq tushunishga yordam beradi. Tilning o'ziga xos elementlaridan bir bo'lmish argo va jargon, ayni rus sinflarga o'zbek tili darsliklari bunday muhitni jonlashtirish namoyon bo'ladi.


Argo va jargonlarning lingvistik funksiyalari.

Argo va jargon – biror argo yoki jargonga xos leksemalar, argo va jargonlar biror ijtimoiy guruh yoki toifalarning, masalan, sportchilar, o'g'rilar, olibsotarlar, poraxo'rlar va boshqalarning "yasama tili"dir. Shuning uchun argo va jargonlar ijtimoiy dialektlar deb ham yuritiladi. Argotizmlar yashirin ma'no ifodalaydi. Masalan: ichuvchilar orasida novcha(aroq), qizil(vino).

Jargonizmlarda – yashirin ma'no bilan birga tinglovchini yoki o'zga bir shaxsni kamsitish yoxud uning xislatlarini bo'rttirib baholash ottenkalari ham mavjud. Argotizm va

jargonlar, asosan, tor doirada ishlatiladi. Ular badiiy asarda va personajlarni tipiklashtirish maqsadida foydalanish hollari uchraydi.

Vulgarizmlar – haqorat ma‘nosida qo‘llanadigan so‘zlar xunasa, dayus, so‘tak, to‘nka kabilar. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma‘nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularning qo‘llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo darslikda keltirilgan matnlarda o‘quvchilarga tushuntrib o‘tish zarur.



Misol uchun 10-sinf o‘zbek tili darsligida **MENING SARGUZASHTLARIM** mavzusida jargon turkumiga oid matnlar va topshiriqlar berilgan. O‘qituvchi kitobida jargonlar, ularning qo‘llanish doirasi, ular qo‘llanadigan vaziyatlar haqida o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazish kerakligi va mustaqil topshiriqlar berilishi kerakligi takidlab o‘tilgan.

**Kontekst** — bu so‘z yoki iboraning atrofidagi matn yoki vaziyat bo‘lib, uning ma‘nosini aniqlashga yordam beradi. Argo va jargonlarning ishlatilishi, ayniqsa, yosh avlod va xalq madaniyatining turli qatlamlariga xos xususiyatlarni badiiy tasvirlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot orqali o‘zbek adabiyotida argo va jargonlar badiiy asarlarning madaniy va ijtimoiy mazmunini chuqurlashtirishda qanday vositalar sifatida ishlatilishi ochib berildi. Bu lingistik birliklarning adabiyotdagi ahamiyatini o‘rganish orqali ularning tilshunoslikda tutgan o‘rnini aniqlash imkoniyati kengayadi.

**Xulosa:** argo, jargon va vulgarizm so‘zlari bilan tanishtirish nafaqat ona tili darslarida balki rus sinflarga ham o‘zbek tili darslari to‘g‘ri tushsuntirish ishlari olib borib qanday vaziyatda qo‘llaniladi va aslida qayerdan paydo bo‘lganligi to‘g‘risida sodda va tushunarli qilib uqtirishim lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘bek adabiy tili.Toshkent-“Talqin”-2005
2. Karimov, B. “O‘zbek tilida argo va jargonlarning o‘rni.” Til va Adabiyot, 2003.
3. Sodiqov, M. “Adabiy til va xalq shevalari: O‘zaro ta’sir.” Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari, 2008.
4. Karimova, D. “Badiiy nutqdagi dialektal unsurlar.” O‘zbekiston filologiyasi jurnali, 2015.
5. Yo‘ldoshev, A. O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1992.